Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 05-noyabr 2026-yil

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATI VA FUNKSIYALARINING TRANSFORMATSION TENDENSIYALARI

**Ilhomjon Ibrohimovich Kamolov**

*O‘zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tashkiliy ishlar bo‘yicha bo‘limi mudiri*

*O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*Telefon nomer: +99890-062-50-50*

E-mail: icamolove@yandex.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda globallashuv va modernizatsiyalash jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda “milliy rivojlanish”, “milliy modellar”, “siyosiy modernizatsiya”, “fuqarolik jamiyati” paradigmalarining metodologik asoslariga oid ijtimoiy sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi konseptual qarashlar hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarning roli, ahamiyati va evalyutsiyasini o‘rganish borasida ilmiy-nazariy fikrlar va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘z:** kasaba uyushmasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, davlat.

**Ключевые слова:** профсоюз, социальное общество, социальное партнерство, государство.

**Keywords:** trade union, social society, social partnership, state.

**2.2. Yangi O‘zbekistonda yangi kasaba uyushmalari faoliyati va funksiyalarining transformatsion tendensiyalari.**

Mamlakatimizdagi kasaba uyushmalari fuqarolik jamiyati instituti sifatida demokratlashtirishdagi muhim vazifalardan biri bu xalqaro tajribalardan kelib chiqib,

mehnat jamoalaridagi boshlang‘ich kasaba uyushmalarining tashkiliy va ijtimoiy himoyaga taalluqli faoliyatini yuksaltirish, ijtimoiy sherikchilikda ham ularning hal qiluvchilik rolini ko‘tarish, ularni mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini ta’minlash, shuningdek, tarmoqlar kasaba uyushmalari atrofiga jipslashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga muhim e’tibor berishdir.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng respublikada ishchi, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qilish, kasaba uyushmalari faoliyatida demokratik o‘zgarishlarni tarixiylik nuqtai nazaridan atroflicha o‘rganilishiga keng yo‘l ochildi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Salkam 120 yillik tarixga ega O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyati davomida yuksalish va pasayish davrlari ham yuz bergan, lekin bu tashkilot hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda kasaba uyushmalari hayotida yangi rivojlanish bosqichi boshlandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi”.

Ayni shu muhim jihatlardan kelib chiqib, Prezidentimiz tashabbusi bilan 11-noyabr “O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” etib belgilandi va 2020-yildan e’tiboran har yili mamlakatimizda katta tantana sifatida an’anaviy nishonlanadi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, kasaba uyushmasi tashkiloti mehnatkashlarining ijtimoiy-iqtisodiy, mehnat va boshqa huquq, manfaatlarini ifoda etish, himoya qilish maqsadida tuzilgan ixtiyoriy birlashma hisoblanadi. Sovet hokimiyati yillarida kasaba uyushmalariga davlat partiya nomenklaturasining bir bo‘g‘ini sifatida qaralgan. Hamda u ishchi va xizmatchilar manfaatlari yo‘lida ko‘rsatmalar asosida faoliyat yurituvchi xo‘jalik mexanizmiga aylantirilgan. Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalarining bozor iqtisodiyoti talablari asosida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishni tashkiliy huquqiy jihatdan ta’minlash borasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Boshqa jamoat tashkilotlari kabi kasaba uyushmalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli normalari bilan mustahkamlab qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi-ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi,

inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Yangi O‘zbekiston - bu avval, inson qadri ulug‘langan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaro o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan davlat hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qoida va talablardan kelib chiqib, adolatli ijtimoiy siyosatni yuritish-Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy omillaridan biri sifatida belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 73-moddasida “Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir”-deb mustahkamlandi.

Yangi O‘zbekistonning Yangi kasaba uyushmalari shakllandi, deyishga to‘la asoslar bor. Kasaba uyushmalarining yangi huquqiy asoslari jadal rivojlandi. Xususan, 2019-yil 6-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning imzolanishi kasaba uyushmalari hayotidagi eng muhim voqea bo‘ldi. Mazkur Qonunni ishlab chiqishda xalqaro huquqiy normalar, xususan Xalqaro Mehnat tashkilotining Konvensiyalari, MDH mamlakatlari, Finlandiya, Shvesiya, Daniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi, milliy amaliyot va qonunchiligimiz inobatga olindi. Xalqaro Mehnat tashkilotining Konvensiyalariga mos ravishda kasaba uyushmalarining huquq va vakolatlari hamda kasaba uyushmasiga birlashish imkoniyatlari kengaytirildi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari, 7 mln.dan ortiq kasaba uyushmalari a’zolarini birlashtiradi. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining oliy organi Qurultoy hisoblanadi va har 5 yilda bir marta chaqiriladi. Qurultoylar oralig‘ida Federatsiya faoliyatiga O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rahbarlik qiladi. Kengash a’zolari tarmoq kasaba uyushmalarining Qurultoylari, kasaba uyushmalari tashkilotlari hududiy birlashmalarining konferensiyalari, shuningdek Federatsiya Qurultoyida saylanadilar.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, respublikadagi yangi siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarda, nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Xususan, mustaqillik yillarida qabul qilingan ilk qonunlardan biri “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, mamlakatimizdagi eng ommaviy jamoat tashkilotlaridan biri bo‘lgan kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini belgilab berdi.

O‘zbekistonda kechayotgan bugungi o‘zgarishlar mamlakat yangi tarixini boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zotan, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda yuz berayotgan ulkan yangilanishlar davlatimizning dunyo hamjamiyati bilan tom ma’noda integratsiyalashuvini ta’minlamoqda.

Muxtasar aytganda, bugun yurtimiz dunyoni o‘ziga chorlayapti, yopiqlikdan ochiq pragmatik siyosat sari yuzlanmoqda. Bunday tutum, shubhasiz, bugungacha mavjud bo‘lgan tartib-qoidalarni isloh qilish va ularni dunyo andozalariga uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati tufayli mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘si ortib, dunyo mamlakatlari bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik va diplomatik aloqalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa yo‘nalishlarda izchil hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari va rahbarligi ostida ko‘plab sohalar qatorida O‘zbekiston kasaba uyushmalari tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, ko‘plab natijalarga erishildi. Xususan:

2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga asosan kasaba uyushmalari tizimida Mehnat inspeksiyasi tashkil etildi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-avgustdagi “Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5227-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi tashkil etildi;

“O‘zbekiston kasaba uyushmalari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq “11

noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” etib belgilandi;

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kasaba uyushmalari Umumkonfederatsiyasiga a’zolikka qabul qilindi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi;

Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, 2021-yilda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikiston kasaba uyushmalari o‘rtasida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi ta’sis etildi. 2024 yilda esa mazkur tashkilotga Qirg‘iziston va Mo‘g‘uliston kasaba uyushmalari ham a’zo sifatida qabul qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kasaba uyushmalari tizimida jami 7 mln.dan ortiq a’zolarni birlashtirgan 37 037 ta boshlang‘ich tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Tizimda jami 6700 dan ziyod xodim va jamoatchilik asosida 300 mingga yaqin faollar samarali ishlab kelmoqda.

Keling, shu o‘rinda uchinchi ming yillikka kelib global dunyoda kasaba uyushmalarining oddiy insonlar hayotidagi o‘rni, uning maqsad hamda vazifalari aynan nimalarda ustuvor darajada namoyon bo‘layotganiga e’tibor qarataylik.

Eng avvalo, bu - to‘liq va mahsuldor bandlikni ta’minlash, mehnatga munosib haq to‘lanishiga, ijtimoiy himoya va muloqotga erishish, qashshoqlikni yo‘qotish, inson huquqlari va kasaba uyushmalari erkinligini kafolatlash, mehnat munosabatlaridagi har qanday kamsitishlarni bartaraf etish, ayollar va erkaklar tengligini ta’minlash, bolalar mehnati va majburiy mehnatga butunlay chek qo‘yishga erishish hamda atrof-muhitni himoyalash kabi vazifalardan iboratdir.

Afsuski, bugun global mehnat bozori bu maqsadlarga erishish yo‘lida yangidan-yangi to‘siqlarga uchramoqda va ta’bir joiz bo‘lsa, ular ijtimoiy-mehnat sohasining zamonaviy qurilmasi poydevorini nuratmoqda.

Eng asosiy muammolar nimalarda ko‘rinadi? Birinchi muammo norasmiy bandlikning o‘sishi, norasmiy sektorning rivojlanishi va kengayishi bo‘lib, u soliq to‘lovlaridan tushadigan daromadlarning kamayishiga, rasmiy sektordagi raqobatbardoshlikning

pasayishiga, eng yomoni, ijtimoiy dasturlarning qisqartirilishi va yetarlicha moliyalashtirilmasligiga olib kelmoqda.

Ikkinchi muammo masofaviy va ijara tariqasidagi mehnat, autsorsing va autstaffing kabi mehnat mohiyatini tubdan yangilovchi formatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Bu esa, o‘z-o‘zidan, mehnat munosabatlari sohasining shakl-shamoyilini keskin o‘zgartirib, ijtimoiy himoyani juda past darajaga olib keluvchi nostandart bandlik shakllarida namoyon bo‘lmoqda.

Uchinchi global muammo raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotda tobora faol qo‘llanilayotganiga borib taqaladi. E’tibor bering, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi hisobiga yaqin 25 yilda sayyoramiz miqyosida ish joylarining 47 foizga qisqarishi taxmin qilinmoqda. Tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, yaqin 15 yildan so‘ng, deylik, buxgalteriya, sog‘liqni saqlash, advokatura, oliy ta’lim va xalq ta’limi sohalaridagi mavjud mansabdor xizmatchilar o‘rinlariga deyarli ehtiyoj qolmaydi… Demakki, bugungi dolg‘ali zamon bizning oldimizga asosi bundan 100 yil avval yaratilgan ijtimoiy himoyaning klassik tizimlarini qayta shakllantirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro miqyosda ijtimoiy himoya eng kam darajasining tan olingan 9 turi mavjud bo‘lib, bular tibbiy xizmat, ishsizlik bo‘yicha nafaqa, baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi bo‘yicha yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha nafaqa, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi, boquvchisini yo‘qotishi munosabati bilan to‘lanadigan nafaqa, kasallik bo‘yicha nafaqa, qarilik bo‘yicha pensiya, oilaviy nafaqa, nogironlik bo‘yicha nafaqalarni o‘z ichiga oladi. E’tiborli jihati, ushbu xizmatlarning 5 turi to‘liq, 2 turi esa qisman ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olingan xodimning hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq afsuski, bugunga kelib ijtimoiy sug‘urtalangan xodimlar soni borgan sari kamayib ketmoqda.

XMT ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytda dunyo aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyadan mahrum bo‘lsa, atigi 29 foizi kompleks ijtimoiy ta’minotdan foydalanish imkoniyatiga ega. Pensiya yoshidagi keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasini olishadi. Bu esa ko‘plab mamlakatlarda ham jamg‘arib boriladigan, ham sug‘urtali pensiya ta’minotining yetarlicha

rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Yana bir og‘ir muammo - taraqqiy topgan yigirma birinchi asrda ham, afsuski, insonlarning sog‘liqni saqlashga bo‘lgan huquqi dunyoning ko‘pgina mintaqalarida hali real haqiqatga aylanmadi. Bu, ayniqsa, aholining 56 foizi mazkur imtiyozdan mahrum bo‘lgan qishloq joylariga taalluqlidir.

Demak, bu borada muhokama qilinishi lozim bo‘lgan mavzular yetarli.

Yaqinda XMT jahon hamjamiyatiga bugungacha amaliyotda bo‘lmagan- xususiy beg‘araz yordamni eng kam darajadagi ijtimoiy himoyani ta’minlash uchun yo‘naltirish haqidagi chaqiriq bilan murojaat qildi. Va bu bilan u o‘z tajribasida jismoniy shaxs korxona va jamg‘armalarining beg‘araz yordamlaridan ijtimoiy himoya maqsadida foydalanish mumkinligini e’tirof etdi.

O‘zbekistonda bu borada yetarli tajriba to‘plangan, ijtimoiy himoya sohasida aynan davlat va xususiy sherikchilik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, resurslarni fuqarolar o‘rtasida maqsadli qayta taqsimlash, ijtimoiy siyosat tizimida esa ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam markaziy o‘rin egallaydi.

Mamlakatimizda davlat byudjeti xarajatlarining 60 foizi ijtimoiy-madaniy sohaga: ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga yo‘naltiriladi. Zero, milliy qadriyatlarga tayanish, o‘zaro yordam va aholini qo‘llab-quvvatlashning jamoaviy shakllari xalqimizning bu boradagi o‘ziga xos qadriyatlaridan biridir. Xususan, mahalla instituti mazkur yo‘nalishda alohida o‘rin tutadi.

Bugun yurtimizda inson omili oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Odamlar ertaga emas, bugun baxtli yashashni istaydilar”, degan tamoyilni ilgari surishi va buni bugungi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishiga aylantirishida ham aynan shu mazmun-mohiyat mujassamdir. Mazkur prinsip ijrosi o‘laroq, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan insonparvar siyosat odamlar hayotiga yangicha mazmun baxsh etmoqda. Xususan, aholining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, qishloq joylarda yangilangan namunali loyihalar asosida arzon uy-joylar qurish bo‘yicha dasturning qabul qilingani odamlar qalbida yashash va ishlashga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartirib yubordi.

Mehnat bozorida talab mavjud bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini kengaytirish, ayni vaqtda ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga kengroq jalb etish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.